



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th December, 2024

YOSH AVLODNING AXLOQIY TARBIYASIDA OMMAVIY MADANIYATNING TA'SIRI

Ochilov Abror

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Xolliyeva Zarnigor Anvarovna

Milliy g'oya , ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi 2-kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'sib kelayotgan yosh avlodning axloqiy tarbiyasida ommaviy madaniyatning o'rnini, globallashtiruv davrining milliy qadriyatlarimizga va yoshlarimiz ongiga ta'siri haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: globallashtiruv, yoshlar tarbiyasi, milliy madaniyat, ommaviy madaniyat , axloq, ta'sir

Аннотация

В данной статье говорится о роли массовой культуры в нравственном воспитании молодого поколения, влиянии эпохи глобализации на наши национальные ценности и сознание нашей молодежи.

Ключевые слова: глобализация, образование молодежи, национальная культура, массовая культура, мораль, влияние.

Annotation

This article discusses the role of mass culture in the moral education of the growing younger generation, the impact of the era of globalization on our national values and the minds of our youth.

Keywords: globalization, youth education, national culture, mass culture, morality, influence



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th December, 2024

"Biz o'zimizning pirovard maqsadimizga erishish uchun zamon qanday tez va shiddat bilan o'zgarayotganini hisobga olgan holda, voqelikning ortida emas, balki uning oldida yurishimiz, har qanday noxush harakat va muammolarning oldini olishimiz zarur». Islom Karimov.

Hozirgi kunda jamiyat va davlat hayoti juda tez sur'atlarda o'zgarib borayotgan zamonda yashamoqdamiz. Jamiyat hayotining tez sur'atlarda o'zgarar ekan unda yuz berayotgan voqea va hodisalarga befarq bo'lmay ilojimiz yo'q chunki bugungi kunda zamonaviy axborotlar maydonining shu qadar kengligi va xilma-xilligi yoshlar o'rtasida milliy mafkuraviy tazyiqlarga olib kelmoqda. Globallashuv jarayoni yoshlar ongiga ham salbiy ham ijobiy tomonlama ta'sir etmoqda. Ommaviy axborot vositalari judayam keng qo'llanilayotgan zamonda biz internet tarmoqlaridan o'zimiz uchun ham zararli ham foydali ma'lumotlarni olishimiz va uni o'z ehtiyojlarimizdan kelib chiqib foydalanishimiz mumkin. Ba'zi bir g'arazli niyatli kimsalar tomonidan o'z mafkuralarini singdirib yomon yo'lga boshlaydigan kimsalarning uyi ham ijtimoiy tarmoqlar bo'lib qoldi. Shu sababli ham biz o'zimiz uchun faqat kerakli ma'lumotlarni olish uchun internet tarmoqlaridan foydalanishimiz lozim aks holda bu biz uchun yomon oqibatga olib kelishi mumkin. Shu bilan birgalikda o'sib kelayotgan yosh avlod o'rtasida kitoblardan ko'ra internet tarmoqlariga qiziqish ortib ular bo'sh vaqtini va e'tiborini faqat ijtimoiy tarmoqlar va virtual o'yinlar o'ynash bilan o'tkazmoqdalar buning asosiy sabablaridan biri ota onalar va yoshi katta odamlar tomonidan bolalarga yaxshi etibor bermasligi va yoshlar o'rtasida ro'y berayotgan axloqqa va milliyligimizga to'g'ri kelmaydigan voqea hadislarga bu zamon talabi deb befarq qo'yish, ular biron bir mashg'ulot bilan shug'ullanmay faqat kunu tun ijtimoiy tarmoqlar va vaqtni behuda o'tkazadigan virtual o'yinlar bilan o'tkazzalar ham ahamiyat bermasligi katta xatolardan biri bo'lib kelmoqda.

Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hujum sursa, eng dolzarb masalalar o'zibilarchilikka tashlab qo'yilsa o'sha yerda ma'naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. Va aksincha - qayerda hushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql idrok va tafakkur hukmron bo'lsa, o'sha yerda ma'naviyat qudratli kuchga aylandi.[1].



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th December, 2024

Bugungi kunda yoshlarning orasida "ommaviy madaniyat" judayam keng yoyilib ularga axloqsizlikni madaniyat deb bildirib ularning asl milliyligi , asrlar davomida shakllanib kelgan qadriyatlariga eskilik sarqiti deb qarashlariga olib kelmoqda. Bunga yaqqol misol qilib yosh yigitlarning Yevropaga taqlid qilib yirtiq shimlar kiyishi, quloqlariga ziraklar taqishi, sochlarini uzun qilib o‘stirishi , qizlarimizning ham o‘z milliyligini unutgan holda kiyimlar kiyishini ko‘rsatish mumkin yoki bo‘lmasa san’atkorlarimiz tomonidan olinayotgan milliyligimizga zid bo‘lgan kinolar , qo‘shiq - kliplar ham so‘zimizga yaqqol misoldir. Birinchi prezidentimiz Islom Karimovning "Yuksak ma’naviy yengilmas kuch" asarida ommaviy madaniyatga shunday tarif berilgan " ommaviy madaniyat degan inqilob ostida axloqiy buzuvchilik va zo‘ravonlik, individualizm , egoesentrizm g‘oyalarini tarqatish, kerak bo‘lsa uning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining manaviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay iloji yo‘q" . Shunday ekan biz yoshlar ongida ma’naviy boshliq yuzaga kelmasligi uchun milliy va madaniy targ‘ibotlar amalga oshirishimiz , ularga milliy an’analar va urf odatlarimizni , o‘tmishda yashab o‘tgan ota bobolarimiz kim bo‘lganini va o‘zligini anglatmog‘imiz lozim . Zeroki yoshlarimiz ma’naviy olami daxlsizligini asrash kelajagimiz poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’naviyatsizlik va g‘oyasizlik har qanday jamiyatni tanazzul sari yetaklashi , davlat siyosati va boshqaruvini kuchsizlantirishi , korrupsiya , jinoyatchilik va axloqsizlik kabi illatlarning ildiz otishiga sabab bo‘lishi bilan bog‘liq misollarni insoniyat tarixidan ko‘plab keltirish mumkin. [2]. Shu sababli ham turli vayronkorlik , buzg‘unchilik , axloqsizlik kabi illatlarning oldini olish uchun milliy madaniy qadriyatlarimizni chuqurroq o‘rganishimiz va o‘shib kelayotgan yoshlar o‘rtasida vaqti kelib ma’naviy tarqoqlik bolmasligi va ko‘r ko‘rona ommaviy madaniyatga ergashmasgi uchun o‘z milliyligimizni, boy tariximizni targ‘ib qilmog‘imiz va yoshlarimiz o‘rtasida vatanga mehr , kattalarga, milliy urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, kichiklarga izzat ruxida tarbiyalamog‘imiz lozim. Inson milliy o‘zligini, milliy mafkurasini , milliy g‘ururini anglasagina o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erisha oladi zeroki inson o‘z tarixini anglamay turib kelajagini yarata olmaydi.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th December, 2024

Ona yurtiga , jonajon xalqiga sadoqat kabi azaliy axloqiy- ma'naviy qadriyatlar haqidagi g'oyalarni o'zlashtirish hozirgi kunning eng dolzarb masalasidir. Modomiki shunday ekan ona zaminga bo'lgan muhabbat qanchalik kuchli bo'lsa vatanni sevish, yuksak darajada ezozlash kopayib boradi. Har bir kishi o'z vatanini , tarixini va madaniyatini , milliy qadriyatlarini , ona tilini, urf-odatlarini, mukammal bilsa , milliy manfaatlarini va istiqloolning qadrini shunchalik chuqur anglaydi. [3]. Shunday ekan biz jahon madaniyatiga aylanib qolgan ommaviy madaniyatga emas o'z milliy g'oyalarimiz va mafkuralarimizga tayangan holda faoliyat yuritmog'imiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islom Karimov “ Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch” Toshkent “ Ma'naviyat”2008,116-bet.
2. Shavkat Mirziyoyev “ Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” Toshkent “ O'zbekiston”2023, 151-bet.
3. Milliy istiqlool g'oyasi . O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent-2013,154-bet.